



Nilufar RASULOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, PhD

E-mail: n.rasulova8919@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor T.Holmanova taqrizi asosida

AKUSHER-GINEKOLOGIYAGA OID SO'ZLARDAGI OMONIMIK MUNOSABATLAR TAHLILI

Аннотация

Zamonaviy tilshunoslik ko'plab yangi tushunchalar va atamalarga tayanadiki, ularni tushunmasdan turib natijalarni o'zlashtirish va baholash deyarli mumkin emas. Garchi omonimiya hodisasi qadimdan mavzuga aylangan bo'lsa-da, hozirgi kunda ham tilshunslar diqqat markazida. Ushbu maqolada omonimiya – bir xil turdagi til birliklarining o'ziga xosligi, ma'no jihatdan farq qilishi “O'zbek tilining izohli lug'ati”dan ajratib olingan akusher-ginekologiyaga oid so'zlar bilan izohlangan.

Kalit so'zlar: Omonimiya, leksik birlik, semantik tahlil, bog'lanmagan ma'no, sintaktik omonimiya.

АНАЛИЗ ОМОНИМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СЛОВАХ, ОТНОСЯЩИХСЯ К АКУШЕРСТВУ И ГИНЕКОЛОГИИ, В «ТОЛКОВОМ СЛОВАРЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА»

Аннотация

Современная лингвистика опирается на такое количество новых понятий и терминов, что освоить и оценить результаты без их понимания практически невозможно. Хотя явление омонимии уже давно является предметом дискуссий, оно по-прежнему находится в центре внимания лингвистов. В данной статье рассматривается омонимия — своеобразие и семантическое различие языковых единиц одного типа — со словами, относящимися к акушерству и гинекологии, извлеченными из «Толкового словаря узбекского языка».

Ключевые слова: Омонимия, лексическая единица, семантический анализ, не связанное значение, синтаксическая омонимия.

“EXPLANATORY DICTIONARY OF THE UZBEK LANGUAGE” ANALYSIS OF HOMONYMIC RELATIONS IN WORDS RELATED TO OBSTETRICS AND GYNECOLOGY

Annotation

Modern linguistics relies on many new concepts and terms, without which it is almost impossible to master and evaluate the results. Although the phenomenon of homonymy has long been a topic, it is still in the focus of attention of linguists. In this article, homonymy — the uniqueness and semantic difference of linguistic units of the same type — is explained with the help of words related to obstetrics and gynecology extracted from the “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language”.

Key words: Homonymy, lexical unit, semantic analysis, unconnected meaning, syntactic homonymy.

Kirish. Ma'lumki, omonimiya hodisasi tilshunoslikda juda keng tadqiq etilgan bo'lib, u tilning barcha sathlarida kuzatiladigan ko'p qirrali lingvistik hodisadir. Til birliklari orasida affiksial, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik omonimiya ko'rinishlari atroflicha tahlilga tortilgan. Omonimiya o'zbek tiliga ham xos hodisa bo'lib, uzoq yillardan beri o'rganilib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” va Alisher Navoiyning “Muhokamatul lug'atayn” asarlarida bu hodisaning mavjudligi haqida ma'lumotlar uchraydi. O'zbek tilshunosligida omonimiya hodisasining leksik-semantik va uslubiy imkoniyatlarini, asosan, leksik birlik sifatidagi mavqeyini o'rganishga asosiy e'tibor qaratilgan. Biroq keyingi yillarda tilshunoslikda tub burilish, ya'ni inson omiliga e'tibor lingvistik hodisalarni til tashuvchisi bilan birgalikda ko'rib chiqishda antropotsentrik paradigma asosida yondashish zaruratini yuzaga keltirdi [1; 105-108-b.]. Tildagi omonimiya hodisasi va omonimlarni o'rganishda antropotsentrik yondashuvning qo'llanishi omonimiyaning nafaqat leksik birlik, lingvistik hodisa, balki tilning barcha bosqichlarida, ayniqsa, sintaktik jihatdan ham o'rganilishi mumkin bo'lgan ko'p qirrali hodisa ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Leksik tahlil semantik tahlilning muhim qismidir. Leksik semantika har qanday so'zning ma'nosini o'rganadi. Semantik tahlilda so'z birikmalari orasidagi munosabat aniqlanadi. Ba'zi munosabatlar giponimlar, sinonimlar, antonimlar, omonimlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Sinonimiya shakllari turlicha bo'lgan, lekin bir xil yoki o'xshash ma'noni ifodalovchi so'zlar o'rtasidagi munosabatni bildirsa, omonimiya bir necha tushunchaning bir xil shaklda ifodalanishini ifoda etadi.

Omonimiya talaffuz qilinishi yoki yozilishi bir xil, ammo turli va bog'lanmagan ma'nolarga ega so'zlar sifatida tavsiflanadi [2].

Tahlil va natijalar. “O'zbek tilining izohli lug'ati” hozirda qo'llanadigan 80 mingdan ortiq so'z va birikmani o'z ichiga oladi. Izohli lug'atda umumiste'mol so'zlari bilan bir qatorda terminlarning ham izohi berilgan. Bu esa lug'atning ilmiy tadqiqot manbasi sifatida qimmatini oshiradi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati” da akusher-ginekologiyaga oid terminlar ham aks etgan. Bu birliklar omonimlik va ko'p ma'nolilik munosabatini ifoda etadi. Lug'atda berilgan ayrim akusher-ginekologiya terminlari hozirgi o'zbek umumiste'mol leksikasida ham ko'p ma'noli so'z sifatida qo'llanadi. Bokira “dastlabki meva; iffatli qiz bola” ma'nolarini ifodalaydi. Turmushga chiqmagan qizning jismoniy holati, fiziologik tuzilishini ifodalaydi: “Er ko'rmagan, turmushga chiqmagan; iffatli” [3]. Bokira so'zidagi “ilk” semasi uning ko'chma ma'nolariga asos bo'lgan: “qo'l tegmagan, kishi oyog'i yetmagan”: M: Qudratli traktorlar cho'lining bokira bag'rini ilk daf'a yorib, ag'darib, havoni gumburlatar edilar. Oybek, “Oltin vodiyan shabadalar”; Ko'chma ma'nolarda ushbu leksemaning “pok”, “sof” semalari ham kuzatiladi: Men sizni yaproqlar rangiga uyqash, Bokira muhabbat bilan sevaman. X.Davron, “Tungi bog'lar” [3]. Doya leksemasi quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: 1. To'lg'oqdagi ayollarni tug'diruvchi xotin; enaga, akusherka. 2. Go'daklarni tarbiyalovchi ayol. 3. ko'chma sabab, bois, asos; paydo, bunyod qiluvchi: Sevgi yo'q yerda loqaydlik bilan qarash ildiz otar ekan. Bu esa ko'ngilsizliklarning doyasi. S. Karomatov, “Hijron”. [3]. Doya termini “tug'diruvchi”, “dunyoga keltiruvchi”, “boquvchi”, “ilk ko'z ochish davriga sabab bo'luvchi” ma'nolarini anglatadi. Ko'ngilsizliklarning doyasi birikmasida “boshlanish”, “sabab” semalari aks etgan.

Xunasa 1. Ham erkak, ham ayollik jinsiy belgilari bo'lgan odam yoki hayvon. 2.Yaramas, ablah, razil. Leksema dastlabki ma'noda o'zbek tilida kam ishlatiladi. Uning ko'chma ma'nosi faol bo'lib, matnda emosional-ekspressivlikni ta'minlaydi [3].

Bachajish 1.Yangi tug'ilgan bola chaqaloq. 2. Qushning yangi tuxumdan chiqqan, hali pati chiqmagan bolasi. ko'chma salb. Yosh bola, go'dak; so'tak [3].

Ko'p ma'noli birlik hisoblangan ba'zi leksemalarning ma'nosida omonimlikka o'tish holati kuzatiladi.

Omonimlar har bir tilning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq struktur-semantik hodisa bo'lib, turli usullar orqali yuzaga keladi:

1. Tarixan boshqa-boshqa so'z bo'lgan, tovush sifati jihatidan farqlanadigan ayrim birliklarning bir xil yozilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi. Masalan, o't (o'simlik), o't (olov), o't (tana a'zosi), o't (harakat) omonimlari aslida qadimgi turkiy tilda unli tovushlarning talaffuzi, sifati, qisqa-cho'ziqligi bilan farqlangan. Hozirgi alifboda tovushlarni farqlab ko'rsatuvchi harf bo'lmagani bois omonimik shakl yuzaga kelgan.

2. Boshqa tildan kirgan so'z o'zbek tilidagi leksik birlik bilan omonimlikni hosil qiladi: tok (elektr toki)- tok (uzum novdasi), rang (bo'yoq)-rang (unvon).

3. Polisemantik so'z ma'nolari o'rtasida bog'lanishning uzilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi: diplomat (shaxs)-diplomat (jihoz). Bu jarayonni kindik akusher-ginekologiya termining ko'chma ma'nolari orqali kuzatish mumkin:

Kindik 1. Qorindagi bolani yo'ldosh (platsenta) orqali ona tanasi bilan birlashtiruvchi, bolani oziq moddalari bilan ta'minlash uchun xizmat qiluvchi ichak-nay. 2. Bola tug'ilgach, shu ichak-nayni kesib tashlash natijasida qorin o'rtasida hosil bo'lgan kichik chuqurcha; qorinning o'rta qismi. 3. ko'chma markaz, o'rta [3].

“Kindik qoni to'kilgan yer (yoki joy, tuproq), tug'ilgan yer, tug'ilgan, o'sgan joy”; “vatan” ma'nolari terminning denotativ ma'nosiga ishora qiladi.

Kindik leksemasining izohli lug'atda keltirilgan “dorboz yuradigan arqonning o'rtaroq joyidan ko'tarib turuvchi ikki yog'och uchlarning bir-biri bilan, shuningdek, arqon bilan tutashgan, kesishgan joyi” ma'nosi “o'rta”, “markaz” semasidan yuzaga kelgan: Uni [dorbozni] kindikdan kindikka, chig'iridan chig'irigacha yo'rg'alatib, salomat olib chiquvchi narsa uning qo'lidagi langari! Shukurullo, “Javohirlar sandig'i”. Leksemaning shu ma'nosida termin sifatida xoslik yuzaga kelgan, omonimiyaga o'tish holati kuzatiladi.

Izohli lug'atda ko'p ma'noli so'z sifatida izohlangan bir qator akusher-ginekologiya terminlari denotat va hosila mano o'rtasidagi semantik bog'lanishning yo'qolishi natijasida hozirgi kunda omonimga aylangan. Quyida ana shunday omonimlar haqida to'xtalamiz.

Ko'p ma'noli ayrim leksemalar semantikasidagi aloqadorlikning uzilishi natijasida sohalararo omonimlik yuzaga kelgan. Doktor 1. Kasalliklarni davolovchi oliy ma'lumotli tibbiyot xodimi; shifokor M: Doktor yozayotgan anketasidan bosh ko'tarib, jilmaydi. O'.Hoshimov. “Qalbingga quloq sol”. 2.Doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan fan nomzodlari yoki professorlarga beriladigan oliy ilmiy daraja va shu darajani olgan olim. M: Filologiya fanlari doktori [3]. Doktor leksemasi sohalararo omonim hisoblanadi.

Bo'g'oz 1.Qornida bolasi bor (hayvonlar haqida). 2. Homilador. M: Tug'ishiga to'rt oy qolgan bo'g'oz xotinlar ham ishga chiqmaydilar. Abdulla Qodiriy. “Obid ketmon”. 3. geogr. Ikki suv havzasini tutashtiruvchi tor suv yo'li M: Gibraltar bo'g'ozi [3].

Bo'g'oz terminini jonzoatlardagi ko'payish fiziologik holatiga nisbatan ishlatiladi. Bu so'zning ayollarga nisbatan qo'llanishi uslubiy jihatdan qo'pol sanaladi. SHEvalarda, so'zlashuv uslubida bo'g'oz terminining ayollarga nisbatan ko'p qo'llanishi mazkur leksemaning adabiy til doirasida, badiiy asarlarda ko'p qo'llanishiga sabab bo'lmoqda.

Geografiyadagi bo'g'oz terminining yuzaga kelishi metafora usuliga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda denotat bilan semantik aloqadorligini yo'qotgan. Shu bois ularni omonim sifatida baholash mumkin: bo'g'oz I “homilador”- akusher-ginekologiyaga oid tibbiy termin; bo'g'oz II gegografik termin.

Zaxm 1. Tig', nayza kabi o'tkir narsalardan badanga yetgan jarohat. 2. “Yuqumli, surunkali tanosil kasalligi; sifilis”:

Sil, zaxm (sifilis) va rak kasalliklari tovush pardasini zaharlab, tovushni o'zgartiradi. N.Ismoilov. “Kasallarni parvarish qilish” [3].

Eroziya 1. Tuproqning, tog' jinslarining oqar suvlar yoki shamol ta'sirida nurab oriqlashi. M: Sahrodagi quduqlar atrofida o'simliklar payhon qilinganligi sababli, u joylarda shamol eroziyasi juda kuchli bo'ladi. P. G'ulomov, “Zarafshon etaklarida”. Tuproqning eng semiz ustki qatlamining suv va shamol ta'sirida nurab oriqlashi. Bodom ildizi sertarmoq bo'lgani sababli, tuproq eroziyasiga qarshilik qiladi. Fan va turmush. 2. tex. Metall buyumlar sirtining gaz yoki suv oqimi, shuningdek, elektr zaryadi ta'sirida asta-sekin yemirilishi.

3. Teri shilliq pardasining yoki epiteliyning yallig'lanishi (shilinishi va yaralanishi). [3; 51-b.]. Eroziya termining shakllanishida “yemirilish”, “kamayish” ma'nosi asosiy o'rin tutadi. Akusher ginekologiya terminining yuzaga kelishida esa “shilinish” ma'nosi asosiydir.

Esh 1. Aylantirib, burab, tovlab pishiq qilmoq; pishitmoq, chiyranoq; yigirmoq. M: Qamish eshmoq. Belbog'ni eshib bog'lamoq. Arqon eshmoq. 2. Ko'chma. O'rniga qo'ymoq, o'rinlatmoq, qoyil qilmoq, qiymoq. 3. O'rtoq, hamdam, yo'ldosh, sherik. shv. Juft. shv. Bola tug'ilgandan keyin tushadigan qobiqning qoldig'i, yo'ldosh.

Esh o'zbek madaniyatida erkaklar ismining o'zak qismini tashkil etadi: Eshnazar, Eshqobil, Eshmirza, Eshtemir, Eshquvvat, Eshdavlat kabi. Bu o'zak gender xoslangan bo'lib, faqat erkaklar ismida uchraydi. Ism sifatida shakllanishida so'zning “do'st”, “yaqin”, “hamroh” ma'nolari asos bo'lgan.

Ip esholmaydi iborasidagi eshmoq fe'li tarkibida “birlashtirish”, “qo'shish” ma'nolari anglashiladi. Esh ikki turkum o'rtasidagi omonimlik hosil qiladi: Esh I “hamroh” (sifat) – esh II “yaqinlashtir”, “hamroh qil” (fe'l)[3]. Eshkak eshmoq fe'lida “birgalikda harakat qilmoq” ma'nosiga asos bo'lib xizmat qiladi. Saraton1.O'n ikki burjning biri, Javzo va Asad burjlari o'rtasida joylashgan.

M: Saraton o'rta kengliklarda kuz, qish va erta bahorda ko'rinadi. O'zME.

2.Shamsiya yil hisobida to'rtinchi oyning arabcha nomi (22 iyun – 21 iyul davriga to'g'ri keladi). M: Saraton kirdi. Birovning ishiga saratonda qo'l muzlaydi. Maqol.

3.daraxt, buta va o'simliklarning barg shirasini so'rib zarar keltiruvchi hasharot turi [3]. Saraton I –burj nomi, astronomik termin. Saraton II quyosh kalendaridagi oy nomi, astronomik termin. Saraton III – kasallik turi, rak, tibbiy termin.

Chilla 1. Yilning eng issiq yoki eng sovuq qirq kuni. M: Chilla kirdi. Chilla chiqdi. M: Hali barvaqt bo'lishiga qaramay, chilla emasmi, quyosh yonib bosh ko'tarmoqda edi. Sharq yulduzi

2.etn. Bola tuqqan yoki tug'ilgandan, qiz turmushga chiqqandan, yigit uylangandan, marhum ko'milgan kundan keying qirq kunlik davr: turmushdagi ba'zi hodisa-ho'latlarning eng og'ir, xatarli yoki mas'uliyatli davri.

M: Chaqaloqning chillasi chiqqach, yangi uyga ko'chib bordilar. Yoshlik.

3.Xalq tabobatida chilla davri qirq kun hisoblanib, shundan yigirma kuni kichik chilla, yigirma kuni katta chilla deyiladi O'zME.

4.so'fiy yoki muridning yakka o'zi alohida xona (hujra)da, odamlardan yashirib, 40 kun davomida toat-ibodat qilishi.

Yoz chillasi yoki yozgi chilla

25 iyundan 5 avgustgacha bo'lgan eng issiq qirq kun.

Avgust — yoz chillasi. Mening shahrimning o'tkir quyoshi yallig'i naq yondiryapti. H.Nazir, Maftuningman, “Ozarbayjon”

Chilla suvi Yoz chillasida ekinlarga beriladigan suv.

Qish chillasi yoki qishki chilla

25 dekabrden 5 fevralgacha bo'lgan eng sovuq qirq kun.

Chilla yara

Bolaga chilla davrida chiqadigan yara, toshma.

Shuhratning boshiga, bo'yniga chilla yara chiqib, olti oyga cho'zildi. Q.Kenja, “Tog' yo'lida bir oqshom”

Chillasi chiqmagan, Chilla o'tirmoq

1. Sufiylik tariqatida: qirq kun davomida uydin chiqmasdan yolg'izlikda toat-ibodat qilmoq.

M: Chillaga o'tirgan shunda qirq kun shayx, Daf qil, deya so'rab xudodan uni. T.To'la

Chilla o'tirish vaqti dindor tomonidan oldindan niyat qilingan bo'ladi. O'zME

2. ko'chma Uzoq vaqt uydan eshikka chiqmay, qimirlamay o'tirmoq.

Chilla(ga) o'tqazib ketmoq

Aldab, firib berib ketmoq.

M: Ipak-atlas karvoniga bosh bo'lgan savdogarlar kosiblarni chillaga o'tqazib ketardilar. N.Yusufiy, "Farg'ona sho'x kuladi" [3].

oy ko'rmoq 1. osmondagi oyni ko'rmoq

2. hayz ko'rmoq[3]. Qorin 1. Tananing qorin devori bilan qorin bo'shlig'idan iborat pastki, ovqat hazm qilish a'zolari, yana ba'zi boshqa a'zolar joylashgan qismi.

Toshxol bug'lanib turgan o'pka, jigar, buyrak, qorinlarni pichoq bilan non ustiga olib qo'ygach, barmoqlariga pufpuflab to'g'ray boshladi. S.Nurov, "Maysalarni ayozi urmaydi"

Xurjunning ikki ko'zini to'lg'azib, qorinda moy keltiradigan qishloqi murid Tillaboy kelib ketdi.

P.Tursun, "O'qituvchi"

2. s.t. Ich, bachadon.

Menam qo'zilarni onasining qornidan tushishi bilan ajratganim yo'q. S.Anorboyev, "Oqsoy"

Uyimizning to'ri seniki. Tor qornimga siqqan, keng uyimga sig'maysanmi? O'.Hoshimov, "Qalbingga quloq sol"

qorin so'zi qatnashgan jumlar:

Bir qorindan talashib tushgan

Bir onadan tug'ilgan.

Onasining qornida

1. Hali tug'ilgani yo'q.

U kelganda, sen chaqaloqmding yo onang qornidamiding Oybek, Tanlangan asarlar

2. ko'chma Mutlaqo yo'q, yer yuzida topilmaydi.

Mening ustimdan ariza yozadiganlar onasining qornida, afandim. P.Tursun, O'qituvchi

Onasining qornida yotganday: Juda tinch, betashvish.

Xotirjam bo'l, kiyikchang xuddi onasining qornida yotganday rohat qilyapti. H. Nazir, Yonar daryo

Xulosa va takliflar. Tilshunoslar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlanganidek kommunikant nutqini yaxshi tushunishga tildagi yuzaki strukturalar bo'lgan grammatika, so'z boyligi kabilarning o'zi yetarli bo'lmaydi, chunki nutqdagi har bir so'zning asl ma'nosi faqat kontekstda namoyon bo'ladi.

Omonimlar inson xotirasida kognitiv maydonning muayyan qismidan joy oladi. Kognitiv semantik maydonda omonimik qatorlararo munosabat, omonim uzvlararo munosabat farqlanadi. Omonimik qatorlar o'rtasidagi munosabat omonimlarning qo'llanish chastotasini belgilasa, omonim uzvlararo munosabat omonimik qatordagi dominantlikni belgilaydi [4]. Omonim so'zining qo'llanishi ham yondosh tushunchalar dominantligi bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. Gulyamova Sh. Jahon tilshunosligida omonimiya hodisasining o'rganilish tarixi va bosqichlari, So'z san'ati xalqaro jurnali. — T: №1 2020. -105-108 b
2. Sayidiraximova N. O'zbek tilida omonimiya tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik va sintaktik sath birligi sifatida. International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.786. P-6.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. — T: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2015.
4. Никатуева З.Ш. Полисемия и омонимия в даргинском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. — Махачкала, 2003. — 26 с.